

2P

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:4 (67013)
2015-yil
26-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

BUYUK AJDODLARIMIZ IZDOSHLARI

Xushxabar

Fizika, matematika va informatika bo'yicha Qozog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan xalqaro fan olimpiadasida o'n besh mamlakattan vakillar ishtirok etdi. Unda Buxoro davlat universiteti qoshidagi 3-Qorako'l akademik litseyi o'quvchilari yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdi.

O'n birinchi bor o'tkazilgan olimpiadada mazkur litsey o'quvchilaridan Jamshid Yaxshiyev va Suhrob Jo'raqulov matematika fani bo'yicha bronza va kumush medallarini qo'lga kiritdi. Bu yutuq Qorako'l akademik litseyi o'quvchilarining nufuzli bilimlar ko'riklaridagi ilk muvaffaqiyati emas. Litsey o'quvchilari shu kungacha qadar xalqaro fan olimpiadalarida fizika, matematika va kimyo fanlari bo'yicha o'ttiz uchta medalga sazovor bo'lgan.

Jamshid MATYOQUBOV

BIZ BAXTIYOR AVLODMIZ

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 1-, 4-IDUMda bilimdon va istirochi o'quvchilar ko'plab topiladi.

Sh. MAXMADYEV va N. SULTONOV

oligan suratlar



MAHALLADA ZO'R PALLA

Poytaxtimizdagi Uchtepa tumani «O'tkir» nomli mahallasi shahrimizdagi eng namunali maskanlardan biridir. Oila – Maktab – Mahalla hamkorligi konsepsiyasi doirasida ko'pgina xayrli ishlarni amalga oshirib kelayotgan mazkur mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari navbatdagi tadbirning qiziqarli o'tishida astoydil harakat qilishdi.



II Jahon urushi faxriysi, 96 yoshli Ollobergan Ibodov hamda front orti qatnashchilari Anvar Abdusamadov, Xolida aya Niyozovalar borligi ayni muddao bo'ldi.

Tadbir davomida 109-umumta'lim maktabi o'quvchisi Nasiba Qosimxo'jayevaning she'ri, 236-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muzrobbek Tohirovning «Vatan» qo'shig'i davraga fayz kiritdi. Ayniqsa, Jamoliddin Latipov, Dilmurod Orifjonov, Ismoil Boqijonov singari 236-ta'lim muassasasi o'quvchilarining harbiy formada saf tortib, ustozlari Yusuf

«O'tkir» mahallasi va shu hududda joylashgan 109-, 236-umumta'lim maktablari hamkorligida «Keksalarni e'zozlash yili»ga bag'ishlab «Vatan himoyasi – muqaddas» mavzusida tadbir tashkillashtirildi. Taklif etilgan mehmonlar orasida

Yusupova boshchiligidagi «Ofitserlar» qo'shig'i ijrosi ishtirokchilarni to'lqinlantirib yubordi.

«O'tkir» MFY raisi Hamidulla Azizov, maslahatchi Manzura To'xtaxo'jayeva,

Mahbuba Qosimxo'jayeva, mahalla sardori Davron Ibragimov, «Mahalla» xayriya jamg'armasidan Jamoliddin G'ulomov, Xotin-qizlar qo'mitasi a'zosi Dilfuza Egamova, pedagoglardan Shohista Ibragimova, Gulnora Jamolova, Salomat Iminova hamda Surayyo Ziyovuddinova, Dilorom Islomovadan iborat tashkilotchilar kechening taassurotlarga boy bo'lishini ta'minladi.

Mahalla faoli Anvar hoji ota Obidovning jazzi harbiylar davrasidagi surati fayzli uchrashuvdan xotira sifatida tahririyat esdalik kitobiga muhrlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV



22-yanvar kuni «Kafolat» DASK AJ Toshkent shahar filiali va «Kamolot» YOIH harakati Toshkent shahar Kengashi bilan hamkorlikda «Sug'urta – bolalar nigohida» rasmlar tanlovi doirasida «Sug'urta tushunchasi va uning afzalliklari» mavzusida 30 nafar targ'ibotchilar uchun seminar bo'lib o'tdi.



SOG'LOM BOLA - POLVON BOLA

Sog'lom bola sog'lom kelajak demakdir. «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi onalar va bolalar salomatligi muhofazasi yo'lida qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

SUG'URTA – SALOMATLIK KAFOLATI

Tadbir davomida soha mutaxassislari yoshlarda sug'urta madaniyatini shakllantirish, ular o'rtasida sug'urtaga bo'lgan ishonchni oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda yosh iqtidor egalarining o'z iste'dodlarini to'la namoyin etishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, qiziqqan yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari yo'lida ko'maklashish masalalari yuzasidan tushunchalar berib o'tdi.



Yosh targ'ibotchilar uch kunlik o'quv-seminaridan olgan bilim va ko'nikmalari asosida poytaxtimizdagi 287 ta umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida zamonaviy sug'urta faoliyati, aholiga barcha sug'urta xizmatlari bo'yicha targ'ibot ishlari olib boradi, shu bilan birga, o'quvchilar orasida mavzuga oid rasmlar tanlovinu o'tkazadi.

Tanlovda saralangan rasmlar maxsus ekspertlar tomonidan baholanib, g'olib mualliflar joriy yilning mart oyida e'lon qilinadi.

Shunday

loyihalardan biri xalqaro hamkorlik doirasida yurtimizdagi bemor bolalarni chet elning nufuzli klinikalarida sog'lomlashtirishdir. O'tgan yil davomida fond tomonidan mazkur yo'nalishda Germaniyaning xalqaro «Friedensdorf International», Koreya Respublikasining «Save the Children», Koreya xalqaro sog'liqni saqlash KOFIH fondi, yehwa Womans University, Severance University, In Xa va Bundan Cha universiteti gospitalari bilan hamkorlikda tug'ma yurak nuqsoni, terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari va boshqa tashxislar bilan og'rigan o'zbekistonlik bolalar bepul sog'lomlashtirildi.

Yaqinda yurtimizga Koreyaning yehwa Womans University



gospitalidan tashrif buyurgan delegatsiya fondning poytaxtimizdagi tibbiy-ijtimoiy markazida bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazdi.

Bunday hamkorlikdan mamnun bo'lgan ota-onalar xayrli ishning tashkilotchilariga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

O'z muxbirimiz

BERUNIYDAN TARALGAN NAVO

Goho tahririyat xodimlarini asalariga o'xshatgim keladi. Bolarilar guldin gulga qo'nib, pokiza bol yig'adilar. Tahririyat xodimlari ham yurtimizning eng chekka hududlarigacha kezib, maktab o'quvchilari bilan ijodiy uchrashuvlar, dildan suhbatlar o'tkazadilar. Bunday tadbirlar chog'i yilt etgan iste'dod sohibini kashf etsalar, ko'ngillari tog'lar kabi yuksaladi. Olis yo'l, safar charchog'i ham tumanday tarqab ketadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga safarimiz chog'i ham ko'plab iste'dodli yoshlar yetishib kelayotganiga guvoh bo'ldik.

Xalq ta'limi sohasi fidoyilaridan biri Anvar Remboev bilan iqtidorli o'quvchilar haqida uzoq gurgung qildik. Beruniy tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida o'qiyotgan Jaqsiliq Aymuratov bugungi kunda nafaqat maktabdoshlari, balki tumani, respublikadagi tengdoshlari orasida iqtidori tufayli ko'pchilikning e'tiboriga tushgan o'quvchilardan biri ekan.

Ona tili, adabiyot va matematika fanlariga mehr qo'ygan Jaqsiliq musiqaga ham juda qiziqadi. U akkordeon cholg'u asbobini chalishni qunt bilan

o'rganmoqda. Tumandagi musiqa va san'at maktabiga qatnay boshlagach, musiqaning sehirli olami unga o'zining rang-barang dunyosini yanada namoyon eta boshladi.

Maktab, tuman doirasidagi tadbirlarning faol ishtirokchisiga aylandi. «Kamalak yulduzlari – 2014» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida Qoraqalpog'iston sharafini himoya qildi va unga bildirilgan ishonchni ortig'i bilan oqladi. Nufuzli bellashuvda tengdoshlaridan ustunligini namoyish etib, g'oliblikka erishdi.

Mana, beruniylik tengdoshingizning intiluvchanligi, tirishqoqligi bois ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritganiga qisman guvoh bo'ldingiz. O'z ustida ishlagan odamga

hamisha g'alaba yor bo'lishini ham aslo unutmang.

Yusuf OG'AY



Do'stim haqida

YUTUQLARIMDAN ILHOMLANAMAN

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijasini bermoqda. Ayniqsa, fan, san'at, adabiyot yo'nalishlariga keng imkoniyatlar yaratilgani bizni ijod qilishga, qobiliyatimizni to'liq namoyon etishga undaydi.



Men kelgusida dizaynerlik kasbni egallashni maqsad qilganman. Zamonaviy liboslar va to'quvchilik yo'nalishidagi izlanishlarim bilan turli ko'rik-tanlov va festivallarda ishtirok etib, ko'pgina yutuqlarni qo'lga kiritdim. Shu musobaqalar sabab kamchiliklarimni ham tuzatib, tajribamni oshirdim. Kelajakdagi orzum atlas hamda adras matolaridan bejirim va chiroyli liboslar yaratish. Erishgan yutuqlarim bilan chegaralanib qolmay, izlanishda davom etib, yangi yutuqlar sari odimlayman. Bunda menga ustozlarim va dugonalarim qanot bo'ladi.

Muxlisa EGAMBERDIYEVA,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi
23-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

Men «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini qoldirmay o'qiyman.

TENGDOHLARIMGA HAVAS QILIB...

Garchi tahririyat xodimlarini ko'rman bo'lsam-da, ularni juda yaxshi ko'raman. Nashrda chop etilgan tengdoshlarimning ijod namunalaridan ilhomlanib, yozgan she'rilarimdan jo'natyapman.


Buvijonim bor bo'lsin,
Har vaqt qilaman hurmat.
Qadami nurga to'lsin,
Har gapi erur hikmat.

Yuzga tenglashib borar,
Omon bo'lsin boshlari.
Kulsa, bahorlar kular,
Duo har qarashlari.

Gulnoza QARSHIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi
8-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

«PO'M» CHIQISHGA SHOSHILMANG

Sinfdosh dugonam bir kuni menga qattiq gapirdi. «A'lo o'qish qo'lingdan keladi. Ammo keyingi vaqt baholaring to'rtga tushib ketdi-ku, dangasa! Shu ahvolda ketsang, sen 7-sinfni a'loqa tugatolmaysan», dedi.



Bu gapdan jahlim chiqib, «Sen dangasa emassan-ku, men dangasamanmi, a?» deb uni jerkib berdim. U bilan «po'm» chiqdim. Hatto gaplashmay qo'ydim, gapirsa javob ham bermadim. Bir kuni sinf rahbarimiz Madina opa bu gapdan xabar topib, meni yoniga chaqirib, «Sen yaxshi qizsan, a'lo o'qish uchun kuching yetadi, qizlar bilan yaxshi dugona bo'l», deya to'g'ri yo'l ko'rsatdi. Ustozning bu gapi menga qattiq ta'sir qildi. Shu kuniyoq dugonamdan uzr so'radim. Chunki u meni a'lochi bo'lishimni istagani uchun o'sha gaplarni aytgani, unda hech qanday g'araz yo'qligini anglab yetgandim. Dugonam quvonch bilan uzrimni qabul qildi. Ikkalamiz bir-birimizni quchoqlab, kulib qo'ydik. Endi yana birga o'ynaymiz, ashula aytamiz. Shunday chinakam dugonam borligidan va u a'lochi, xushfe'l, shirinso'z ekanidan quvonaman, yana menga o'xshab ashula aytishni yoqtirishi uchun uni yanada yaxshi ko'raman.

Gavhar TO'LQINJONOVA,
Toshkentdagi 175-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

MUZEY – TARIX KO'ZGUSI

Qishki ta'til kunlarida G'allaorol tumanidagi 20- va 45-umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilari shu tumandagi 57-umumta'lim maktabida tashkil etilgan tarix muzeyida bo'lishdi.

Muzeyga turli davrlarda qo'llanilgan qog'oz pullar, zarb etilgan tangalar, turli adabiyotlar, pochta markalari hamda fotosuratlar ekspонат sifatida qo'yilgan. Ko'rgazmalar orasidan so'zana, milliy kashtachilik namunalari, kelin-kuyov liboslari, ko'za va sopol idishlar ham o'rin olgan.

Bundan tashqari, tuman «Xotira maydoni» ko'rinishi matolarga yuksak mahorat bilan tushirilgan.

Ayniqsa, o'tgan asrda foydalanilgan zardo'ppi, zebigardon, bilaguzuk, tillaqosh kabi ko'plab taqinchoqlardan iborat muzey ekspozitsiyasi o'quvchilarda zavq uyg'otdi.

Ta'lim muassasasining tajribali pedagogi Sultonmurod Xolbo'tayev rahbarligida jamlangan 500 ga yaqin ekspонат o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirdi. O'quvchilardan Dilnoza Boybo'tayeva, Temur Abdurashidov, Sitora Sa'dullayeva o'zlarini qiziqirgan savollarga javob olishdi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

MUVAFFAQIYATLAR

SARI...

Buxoroga safarimiz chog'i Peshku tumanidagi ko'plab ta'lim muassasalarida bo'ldik. Maktabda muallimlik qiladigan Matlab opa Naimova qizlarining yaxshi o'qishi uchun ularning kunlik uyga vazifalarini nazorat qiladi, shundan bo'lsa kerak, qizlarning har qaysisi darslarni a'lo baholarga o'zlashtiradi. Ayniqsa, o'rtancha Mohinabonu tumandagi 12-umumta'lim maktabining eng a'lochi o'quvchilaridan biri sifatida ko'zga ko'rindi. Zukko qiz 2010-yili 4-IDUMI ingliz tiliga yo'naltirilgan 5-sinfga tanlov asosida qabul qilindi.



Mohinabonu Narziyeva ta'lim muassasasida jamoatchi o'quvchi ekanligi bilan barcha sinfdoshlariga namuna bo'lib kelmoqda. U har bir soatlik darsni diqqat bilan tinglaydi, javob berishda esa ijodiy yondashishga harakat qiladi. Ona tili va adabiyot, rus, ingliz tili hamda tarix fanlarini qiziqib o'qiydi. Ingliz tilida she'r, hikoyalar yozish va tarjima qilish uning sevimli mashg'uloti.

Maktab-internatining faxri bo'lgan a'lochi o'quvchi har yili «Bilimlar bellashuvi»da ingliz tili bo'yicha ishtirok etib, viloyatda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Mohinabonuning erishgan yutuqlaridan biri 2014-yili «Viloyat hokimi stipendiyasi» sovrindori bo'ldi hamda ijodkorning «Orzular qanotida» she'riy kitobi nashr qilindi. 2014-2015-o'quv yilida ingliz tili bo'yicha fan olimpiadasining 2-tuman bosqichida mutlaq g'olib

bo'ldi. G'oliba hozirda tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

Mohinabonu Ulug'bek qizi kelajakda otasining izidan borib, u kishidek adolat posboni bo'lishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Nurbek NURALI o'g'li

BUGUNNING O'QITUVCHISI

Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi 44-umumta'lim maktabida darsni noan'anaviy tarzda kechishini ta'minlashda o'qituvchilar bor pedagogik mahoratlarini ishga



soladilar

O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarida ustozlarning o'rnini e'tirof etish joiz.

Mazkur ta'lim muassasasida qariyb 30 yildan beri o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelayotgan Dilbar opa Manbetova har bir darsga ijodiy yangilik kiritishga harakat qiladi. Maskandagi yosh mutaxassislar ham uning ish tajribasini o'rganish maqsadida muntazam dars tahlilida qatnashib borishadi. Ustoz rahbarlik qilgan sinf o'quvchilarining aksariyati endilikda pedagogika sohasida faoliyat yuritishmoqda. Sobiq o'quvchilaridan E'tibor Usmonova ham oliygohning o'zbek filologiyasi yo'nalishini bitirib, endilikda Dilbar opa singari muallima.

Dilbar opa o'quvchilari erishgan yutuqlari haqida zavqlanib so'zlaydi. Yaqinda bo'lib o'tgan fan olimpiadasida 9-sinf o'quvchisi Sitora Karimova «O'zbekiston kelajagi mening tasavvurimda» mavzusidagi inshosi bilan tumandagi tengdoshlari orasida yuqori o'rin egalladi. Bu maktabda opa boshchiligidagi allomalar tavallud kunlari o'zgacha nishonlanadi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilari darslikdagi adib-u shoirlarning ijod namunalarini yoddan bilishadi.

Bugun o'quvchilar hademay nishonlanadigan Navoiy tavallud kechasiga tayyorgarlik ko'rishmoqda. Adabiyotchi ustoz o'quvchilariga mavzuga oid manbalarni tanishtirish bilan band. Ta'lim fidoyisi, o'quvchilarning sevimli ustoziga ijodiy barkamollik tilaymiz.

XUSH KELIBSAN, BOLAJON!

Ayni kunlarda respublikamiz umumta'lim maktablarida 1-sinfga tayyorlash bo'yicha tayyorlov guruhlari ish boshlab yuborishgan.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabida ham salkam 50 ga yaqin bolajonlar va ularning ota-onalari ishtirokida mavzuga doir tadbir tashkil etildi. Maktab ostonasiga endigina qadam qo'yayotgan jajji kichkintoylarning ko'zlarida quvonch bilan birgalikda ajib hayajon aks etib turar, ota-onalar esa jigarbandlarini qaysi o'qituvchining qo'lga berish

haqidagi «tashvish»lari ularning yuzi-ko'zlaridan bilinib turardi.

Bolalikning beg'ubor damlarini birga shodon o'tkazayotgan Asadbek va Abdulboriy ham endi haftada ikki marta tayyorlov mashg'ulotlariga qatnashadi. Qanday mazza, bir ko'chada turadigan ikki o'rtoq yana sinfda ham birga o'qishadi!

Tadbir yakunida ustoz Lutfiya Siddiqova o'ziga birlashtirilgan guruh o'quvchilariga birinchi saboqni o'tdi. Malakali muallima tortinchoq, imyanib turgan bolalar bilan tezda til topishdi.

– Ustozimiz xuddi oyim kabi mehribon ekan, – deydi jajji Saodat.

– Ustozimning aytishicha, faqat «5» baho oladigan o'quvchi a'lochi hisoblanar ekan. Men ham a'lochi bo'lish uchun endi ko'proq o'qishim kerak bo'ladi, – deydi Asadbek o'zini xuddi kattalardek tutib.

O'sha kuni mitti o'quvchilarini bag'riga olgan maktab har doimgidan-da fayzli ko'rindi.

JALAQUDUQLIK YOSH IXTIROCHI

Abdullajon Solijonov Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 6-sinfida o'qiydi. Sinfning a'lochisi bo'lgan bu o'quvchi bo'sh vaqtlarini tuman «Barkamol avlod» bolalar markazida



o'tkazadi. Undagi texnik soha, elektronika bo'lgan qiziqishni ustoz Amirxon Abdurashidov uyg'otgan. O'z ishinin ustasi bo'lgan ustoz yosh bo'lishiga qaramay shogirdlarining yutuqlarini o'z yutuqlaridan ko'ra ustun qo'yadi. Abdullajon kichik yoshidan boshlab turli mashina va robot o'yinchoqlarga qiziqar edi. Bu qiziqish keyinchalik uni texnik yo'nalishidagi to'garakka yetaklab bordi.

«Mustaqillik – mening taqdirimda» mavzusidagi «Barkamol avlod» bolalar festivalining texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha 3-o'rin sovrindori bo'lgan andijonlik ishtirokchi mazkur ko'rik-tanlovda bugungi kunda mamlakatimizda yangi arxitektura dizayni asosida qad rostlayotgan zamonaviy binolarning maketlari hamda o'z orzusidagi uy-kema maketi bilan ishtirok etdi. Tanlovga taqdim etilgan ushbu ijodiy ishlarining

ahamiyatli jihati shundaki, mazkur ishlar o'quvchining texnik qobiliyati, tasavvuri, o'tkir zehning natijasi sifatida muallifning o'zi tomonidan ixtiro qilingan.

Hozirda tengdoshingiz o'z tasavvuridagi modellar, maketlarni bemalol yasay oladi. Buning uchun undan, albatta, matematika, chizmachilik, tasviriy san'at, dizayn sohalarini yaxshi bilish talab etiladi. Maktabda olgan bilimiga qo'shimcha ma'lumotlarni ustoz yordamida o'zlashtirib boradi. Abdullajonning orzusi kelajakda arxitektor bo'lib, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga o'z hissasini qo'shish.

PARVOZ ZAVQI

Joriy yil «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazida Aviamodel yo'nalishining «Katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellari» musobaqasi bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'zlarini yashagan modellarni katapulta yordamida uchurdilar. Musobaqa natijalariga ko'ra 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar orasida 79-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Almaz Umbetov 1-o'rin, 103-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Igor Sandler 2-, 79-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Vladislav Xavanskiyga 3-o'rin nasib etdi. Shuningdek, 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan musobaqa qatnashchilari orasida 107-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Ramazon Tojiyev 1-o'rin, 283-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Jahongir Yo'ldoshev 2-, 3-o'ringa esa 195-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Komiljon Sohibov loyiq deb topildi.

OLMOS

G'oliblar tashkilotchilar tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Lesson 20

Let's help our mother to do the shopping
(Keling, xarid qilishda onajonimizga yordam beramiz)

1 macaroni	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	12



Ro'yxatdagi mahsulotlarni to'g'ri tanlang:

Milk, cheese, butter, eggs, potato, apple, orange, macaroni, rice, cucumber, oil, some bread.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rtacha Chirchiq tumanidagi 54-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Joke (Latifa)



Teacher: «Jamshid, why aren't you writing?»
Jamshid: «I doesn't have a pencil».
Teacher: «Jamshid, that's not a correct sentence. The correct way is: I don't have a pencil, he doesn't have a pencil, we don't have a pencil».
Jamshid: «Who stole all the pencils then?»

Sitora XURSANBOYEVA,
O'zDJTU talabasi

Check yourself
(O'zingizni sinab ko'ring)


What are these things? Choose your answer from the list and write a sentence.
Animal, bird, flower, fruit, musical instrument, planet, river, tool, game, vegetable

- | | |
|-------------------|--------------|
| 1. a duck? | It's a bird. |
| 2. the Amudaryya? | It |
| 3. a rabbit? | It |
| 4. tennis? | It |
| 5. a rose? | It |
| 6. a hammer? | It |
| 7. a carrot? | It |
| 8. Mars? | It |
| 9. a trumpet? | It |
| 10. a pear? | It |

Choose rightly
(To'g'ri tanla)

Look at the big pictures and then answer the questions.

- Whose is this?
Go'zal's
- Whose are these?
.....
- Whose are these?
.....
- Whose is this?
.....
- Whose is this?
.....



- Whose are these?
.....
- Whose is this?
.....
- Whose is this?
.....
- Whose are these?
.....
- Whose is this?
.....



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

The Hare and the Tortoise
(Quyov va toshbaqa)

The Hare was once boasting of his speed before the other animals. «I have never yet been beaten», said he, «when I put forth my full speed. I challenge any one here to race with me».



The Tortoise said quietly, «I accept your challenge».
«That is a good joke», said the Hare; «I could dance round you all the way».
«Keep your boasting till you've beaten», answered the Tortoise. «Shall we race?»

So a course was fixed and a start was made. The Hare darted almost out of sight at once, but soon stopped and, believing that the Tortoise could never catch him, lay down by the wayside to have a nap. The Tortoise never for a moment stopped, but went on with a slow but steady pace straight to the end of the course.

When the Hare awoke from his nap, he saw the Tortoise just near the winning-post. The Hare ran as fast as he could, but it was too late. He saw the Tortoise had reached the goal. Then said the Tortoise:

«Slow and steady wins the race».

New words:

- | | |
|------------------------|--------------------------------|
| Hare – quyov | Boast – maqtanmoq |
| Speed – tezlik | Challenge – chaqirmoq, undamoq |
| Dart – yeldek yugurmoq | Nap – mudroq |
| Race – kimo'zar | |

It is interesting
(Bu qiziq)

- Hear – eshitmoq – means able to hear.
Listen – quloq solmoq – means to pay attention to things you hear.



For example: I couldn't hear what he said.
I was listening to the radio when I heard a strange noise outside.

Umida UMAROVA

BILMAM QAYDA UYING BOR

Osmondan tushgan oq qor,
Bilmam qayda uying bor.
Laylakqor-u shakar qor,
Buncha toza, beg'ubor.

Uxlab qolgan dalada,
Rizq ulashib muloyim.
Hosil mo'l bo'lishiga,
Yordaming tegar doim.

O'xshasin orzu-umid,
Sendayin oq parchaga.
Shirin tilaklar bitib,
Omad tilay barchaga.

*Dilshoda ANORBOYEVA,
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi
24-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi*



QANDAY GO'ZAL TABIAT...

Quyosh botar kechki payt,
Qanday go'zal tabiat,
Buning sirin menga ayt.

Qor yog'di pag'a-pag'a,
Qarg'a qilar dag'-dag'a,
Jonim sizga sadag'a.

Shamollar g'ir-g'ir esar,
Chaqqoq ko'k bag'rin kesar,
Oy yuzin bulut to'sar.

*Sardorbek ISTAMOV,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
30-umumta'lim maktabining
3-«A» sinf o'quvchisi*




VATANPARVAR

Bahrom TOJIYEV

Bilakda kuch, o'z elining polvonidir,
O'z yurtining mard o'g'loni, pahlavondir.
Chegarani qo'riqlashda hech qo'rqmaydi,
Postda har dam hushyor turar,
Vatanparvar, Vatanparvar!

– Ortimda tinch ona Vatan,
Unga sadqa, – der, – jon-u tan!
Xalqim uchun sarf qilaman,
Doim kuchim bo'lib bardam,
Vatanparvar, Vatanparvar!

Unib-o'sib askar bo'ldim,
Ruh, tan, aqlim kuchga to'ldi.
Tuproq'imni yaxshi ko'rdim,
El sha'nini saqlab har dam,
Bo'lay doim Vatanparvar!



E'ZUZ



Charaqlaydi ko'z'laringiz,
Nurga to'la yuzlaringiz.
Serma'nodir so'z'laringiz,
Bobojonlar, buvijonlar.



She'rim ila aytayin roz,
Sizga bo'lsin hurmat, e'zoz.
Men ulg'ayay, kuting biroz,
Bobojonlar, buvijonlar.

Duoingiz olsam deyman,
G'amxo'ringiz bo'lsam deyman.
Xizmatigiz qilsam deyman,
Bobojonlar, buvijonlar.

*Rohila MURODOVA,
Sirdaryo viloyati, Yangiyer
shahridagi 1-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi*

ISTIQLOL YO'LIDA...

Qushlari samoda sayrasinlar, deb,
Bolam ham qo'rqmasdan orom olsin, deb,
Daryolar jildirab, to'lib oqsin, deb,
Istiqlol yo'lida fido bo'lganlar.

Qo'li gul ustalar bino qursin, deb,
Yoshlar ezgulikni hamroh bilsin, deb,
Osmonda bulutmas, quyosh kulsin, deb,
Istiqlol yo'lida fido bo'lganlar.



Qodiriy bobomning oqqan ko'z yoshi,
Cho'iponning charaqlab chiqqan quyoshi,
Avloniy qalbida sabr-bardoshi,
Istiqlol yo'lida fido bo'lganlar.



*Og'abek BAHRIDDINOV,
Sirg'ali tumanidagi
300-umumta'lim maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi*

Ustoz haqida so'z

HAYOTSEVAR SHOIR EDI...

Insonning hayotida eslashga arzigulik yaxshi kunlar, qiziqarli voqealar ko'p bo'ladi. Ammo ularning ayrimlari umrbod xotiradan o'chmaydi, aksincha, kishi eslagani, o'ylagani sari shu'la sochaveradi. 1-sinfga ilk bor qadam qo'ygan kunimiz, birinchi muvaffaqiyatimiz, erishgan yutug'imiz, eng yaqin do'stimiz bilan tanishgan kunimiz...



Nazarimda, qalam ahliga bunday voqealar ikki hissa ko'proq bo'ladi: birinchi marta she'r yozgan kuni, ilk bor ijod namunasi matbuotda chop etilgan kun, birinchi kitobchasi bosmadan chiqqan sana...

O'rta maktabni tamomlab, «Tong yulduzi» tahririyatida ish boshlagan kunlarimda qalban his qilgan kuchli hayajonimni sira unutmayman. Kechagina maktab partasida o'tirgan mittigina qizaloq bugun respublikada yagona bo'lgan bolalar va o'smirlar nashrida ish boshlaydi-yu, hayajonlanmay bo'ladimi, axir?! Shunday kezlarda atrofdagilarning bir og'iz iliq gapi, e'tibori kishiga dalda

bo'larkan. Tahririyat xodimlari orasidagi bo'yi o'rtadan biroz pastroq, serharakat, ko'zlari doimo kulib turadigan bir inson – bolalar shoiri Hamza Imonberdiyevning samimiyati menga har jihatdan dalda bo'lgandi o'shanda.

O'quvchilik yillarimda yozgan qoralamalarimni birovga ko'rsatishga tortinib yurgan kunlarim edi. Hamza aka bilan bosh muharririmiz topshirig'iga binoan bir tashkilotga boradigan bo'lib qoldik. Yo'l-yo'lakay suhbatimiz o'z-o'zidan ijod mavzusiga borib taqaldi. Shunda Hamza akaga she'riy mashqlarimdan o'qib berdim. «She'rlaringizning mavzusi, mazmuni yaxshi, lekin juda cho'zilib ketgan. Bolalar qisqa, lo'nda fikrni tez va yaxshi qabul qiladilar. Siz ham shunday yozishga harakat qiling. Shundagina bolalar yozganlarigizni bajon-u dil o'qishadi. Mana sizga bir mavzu: yomg'ir yog'sa, palaponlar xursand bo'lishar ekan. Chunki bu paytda ularning onasi yonida bo'lar ekan. Shu mavzuda ixchamgina she'r yozing», dedi. Ertasi kuni sakkiz qatorli she'r

yoziq keldim va tortinibgina o'qib berdim. Hamza aka meni diqqat bilan tingladi-da: «Yana ham ixchamlashtirishning iloji bormi?» deb so'radi. Xonamga chiqib she'rni yanada ixchamlashtirdim:

*Yomg'ir yog'sa, palaponning
Ko'ngli sevinchga to'lar.
Chunki bu dam onajoni,
Uning yonida bo'lar.*

To'rtligimni tinglab

Hamza aka bolalarcha quvonib, qarsak chalib yubordi. «Bo'lar ekan-ku! Endi ko'proq yozing. Mavzuni esa sizga bolajonlarning o'zlari berishadi», dedi. Darhaqiqat, ukalarimiz, jiyanchalarimizning xatti-harakatlaridan, gap-so'zlaridan ta'sirlanib, ilhomlanib she'rlar qoralay boshladim. Ular jamlanib, kitobcha bo'ldi. Kichkintoylarning kitobimdagi she'rlarni zavqlanib o'qib, qiqirlab kulishlarini ko'rganimda, beixtiyor ustozning quyidagi fikrlari yodimga



tushaveradi: «Aldagani bola yaxshi, deyishadi. Men bu fikrga sira qo'shilmayman. Bolalarni aldab bo'lmaydi. Ularning o'zidan olib, o'z tilida o'zlariga berolsangizgina sizni qabul qilishadi. Ular yolg'on gapirishmaydi yoki ko'ngil uchun mulozamat qilishmaydi. Yoqsa o'qishadi, yoqmasa o'qimay qo'ya qilishadi...».

Hamza aka Imonberdiyev hayotsevar, boshqalarni ham hayotni sevishga, uning har lahzasini qadrlab yashashga undaydigan nekbin shoir edi. Afsuski, o'zi bu olamni erda tark etdi.

Hayot bo'lganida umrining 60 bahorini qarshilagan, yana ko'plab quvnoq she'rlari jamlangan kitoblari bolajonlar qo'lga yetib borgan bo'lardi... Lekin yana bir tasalli borki, inson umri uning yashagan yillari bilan emas, qilgan ezgu amallari bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, Hamza akaning porloq xotirasi yozgan kitoblari, she'rlari orqali shogirdlari, yaqinlari, qadrdonlari, she'riyat ixlosmandlari qalbida yashayveradi.

Feruza JALILOVA



BAHROMBEKLAR

ULG'AYAR BUNDA...



4-umumta'lim maktabining 7-«B» sinfida tahsil olayotgan Bahrombek Luqmonov salkam yetti yildirki, sport bilan shug'ullanib keladi. Bunda uning yaqin ko'makchisi murabbiy Ulug'bek Jalolovdir. Shogirdidagi qobiliyatni sezgan ustoz uning sportda o'z o'rniga ega bo'lishi yo'lida bor mehnatini ayamaydi. Yosh sportchi

Qashqadaryo vohasining Kitob tumanida bir qishloq bor. Sevaz deb ataluvchi bu maskanda Bahrombek ismli bir bolakay istiqomat qiladi. U maktabga ilk qadam qo'ygan kundan boshlab sportning kikkoksing turi bilan shug'ullanib keladi.

o'tgan yillar mobaynida «Umid nihollari» musobaqalarning tuman, viloyat bosqichlarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib keldi. O'zbekiston xalqaro ochiq turnirida faol ishtirok etgan o'smir mustaqilligimizning 23 yilligi arafasida o'tkazilgan musobaqada kikkoksingning kadin yo'nalishi bo'yicha viloyatda 1-o'rin sohibi bo'ldi.

Bahrombekning sport bilan birga barcha fanlarni yaxshi o'zlashtiradi. Sinf rahbari Zulmira Ibodova ham o'z o'quvchisidan minnatdor. Og'abek, Dilshod, Jasurbek kabi o'quvchilar uning eng yaqin do'stlari. Darsdan bo'sh vaqtlarida mashg'ulotlarni 3-bolalar va o'smirlar sport maktabida davom ettirayotgan tengdoshingiz kelgusida huquqshunos bo'lishni maqsad qilgan.

Bahrombekning bugungi kunda erishayotgan yutuqlarida bolaligida buvisi Karomat ayadan eshitgan «Uch og'ayni botirlar» ertagi qahramonlari kabi kuchli va zabardast bo'lish orzusi turki bo'lgan bo'lsa, ne ajab?!

Bolalar sportini rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan bir paytda yurtimiz sportsevarlari nafaqat respublikada, balki xalqaro maydonlarda mamlakatimiz sharafigini himoya qilib kelmoqda.



BAYDARKA MALIKASI

Hikoyamiz qahramoni Natalya

Kazanseva, mana to'rt yildirki, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning Baydarka va kanoeda eshkak eshish turi bo'yicha shug'ullanib keladi. Hozirgi kunda Chirchiq Olimpiya zaxiralari kollejining 1-bosqich o'quvchisi bo'lgan sportchi mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida sportga oid adabiyotlarni mutolaa qilishdan tashqari o'zbek milliy taomlarini tayyorlash sirlarini o'rganmoqda. Yosh eshkakchi o'tgan davr mobaynida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'tgan yilning erta bahorida Toshkent dengizida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida BO'SM jamoasidan sportchi K-1 2000 m. masofada faxrli o'rinni egallagan bo'lsa, sal o'tmay xuddi o'sha joyda 1996-1997-yilda tug'ilgan qizlar va o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan mamlakat chempionatida Natalya Kazanseva K-2 1000 m. da I hamda K-1 1000 m. kanoeda eshkak eshish bo'yicha II o'rin sohibi bo'ldi.

Baydarka malikasi erishgan yutuqlarida ustozlari - ko'plab xalqaro turnirlar g'olibi va sovrindorlarini tayyorlagan murabbiy Farhod Bo'riyevning mehnatini qadrlaydi. U kelajakda o'zi shug'ullanayotgan sport maktabida murabbiylik qilib, ustoziga qanot bo'lmoqchi.

MAKTABDOSHLAR G'ALABASI

Guliston shahridagi 2-umumta'lim muassasasining 4-sinfida tahsil olayotgan Kim Maksim Tarasovich, Ayder Xalilov, Jasur Turg'unboyev maktab faxrii hisoblanadi. Mahalladagi ibratli oilalarning aziz farzandlari bo'lgan bu bolakaylar sport bilan muntazam shug'ullanib keladi. Jasur maskanda ochilgan to'garakda Sanjar Eraliyev murabbiyligida sportning qo'l to'pi turi bo'yicha saboq olib kelayotgan bo'lsa, Maksim va Ayder Gulistondagi «Alpomish» sport majmuasida N. Abdusaidov rahbarligida karate sirlarini o'rganib kelishmoqda. Jasur Turg'unboyev o'tgan o'quv yili «Umid nihollari» sport musobaqalarida qo'l to'pi bo'yicha 2-o'rinni egallab, Jizzax viloyatida o'tkazilgan Respublika ochiq turnirida ham 2-o'ringa munosib topildi.

O'ZBEKISTON CHEMPIONI

Biz hozir sizga tanishtiradigan sportchi Hojiakbar Abdumutalipovdir. U Andijonning Buloqboshi tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-sinfida ta'lim oladi. Hojiakbar 6 yoshidan boshlab Q. Karaboyev murabbiyligida sportning karate turi bilan shug'ullanib keladi. U karatening sir-asrorlarini tez o'zlashtirish bilan birga yildan yilga musobaqalarda ko'rsatayotgan natijalari ham o'zgarib bormoqda.

2013-yil Hojiakbar uchun ancha omadli keldi, u O'zbekiston chempionatida barcha raqiblaridan ustun kelib, O'zbekiston chempioni bo'ldi. Shu yili Birlashgan Arab Amirliklari davlatining Dubay shahrida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda ishtirok etdi. 40 dan ortiq mamlakatlar sportchilari ishtirok etgan mazkur musobaqada sportchimiz kumite bahslarida ucha raqibini yengib, musobaqaning chorak finaligacha yetib bordi. O'sha yili O'zbekiston kubogida ham faxrli 1-o'rinni egalladi.

Hojiakbar 2014-yili poytaxtda mezbonlik qilgan O'zbekiston chempionati bahslarida yana bir bor respublikada g'olib ekanligini isbotladi va ikki bora O'zbekiston chempioni bo'ldi.

II-TIP Bolalar sport majmuasi foydalanishga topshirilganiga hali ko'p bo'lmasa-da, endilikda maskanda sportning 10 dan ortiq turlari muntazam faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ushbu sport maktabining karate to'garagi a'zosi Hojiakbar Abdumutalipov o'tgan yilning oktabr oyida o'tkazilgan viloyat kubogi bellashuvlarida 1-o'rinni egallab, Respublika kubogida ishtirok etdi. Bu safar ham raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmagan sportchi ikkinchi bor mamlakat kubogini boshi uzra baland ko'tardi.

Andijonning faxri bo'lgan yosh sport ustasiga kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

Sahifani Shukrulla G'ULOMOV va Muhammadsodiq ALIMOV tayyorladi



UCH SEHRLI SO'Z (Ertak)

QO'G'IRCHOQLAR FAQAT OVUNCHOQ EMAS!

Qadim zamonda uch qadrdon do'st yashagan ekan. Ular juda ahil, bir-biriga mehribon bo'lib, har biri faqat bittadan so'zni bilishardi, xolos.



Birinchi «Assalomu alaykum!», ikkinchi «Xo'p bo'ladi», uchinchi esa «Kechiring», deya olardilar. Kunlardan bir kun ular sayohatga chiqishibdi. Yo'lda ular bir qahri qattiq odamning qo'liga asir tushib qolishibdi. Birinchi do'st «Bizni qo'yib yuboring», demoqchi bo'lib, «Assalomu alaykum!», debdi. Qahri qattiq odam ikkinchi do'stga qarab: «Anavini olib kel», deb ko'zaga ishora qilibdi. U nimani olib kelishni bilmay, «Nimani?» demoqchi bo'lib, o'zi bilgan «Xo'p bo'ladi»ni aytib yuboribdi. Uchinchi sherik bag'ritosh odamning qahridan qo'rqib ko'zani olib kelmoqchi bo'libdi-yu, yo'lda qoqilib qo'lidan tushirib yuboribdi va «Nima qilib qo'ydim?» demoqchi bo'lib, «Kechiring», debdi.

Shu payt haligi toshbag'ir odamning ko'ngli yumshab, yig'lab yuboribdi. Negaki, unga hali hech

kim bunday so'zlarni aytmagan ekan. U bandilarini qo'yib yuborar ekan, endi insonlarga aslo zarar yetkazmaslikka so'z beribdi.

Do'stlar esa boshqa so'zlarni bilishmasa ham, o'rgangan uchta sehrlil so'z tufayli asirlikdan qutilishibdi.

E'zoza USMONXO'JAYEVA, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi



G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etilgan «Jayxun» qo'g'irchoq teatri rahbari, qo'g'irchoqsoz usta Mansur Kuryazov o'rta ta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari, «Barkamol avlod» Respublika bolalar-texnik ijodiy markazi xodimlari uchun ma'naviyat xonalari, to'garaklar tashkil etish, milliy qo'g'irchoqlardan ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish to'g'risida davra suhbatlari va mahalliy xomashyolardan foydalangan holda qo'g'irchoq o'yinchoq tayyorlash bo'yicha mahorat darsini o'tdi.

Unda qo'g'irchoqlar faqat ovunchoq emas, tarbiya vositasi ekanligi, ular orqali urf-odat va an'analarimizni dunyoga namoyish qilish haqida ma'ruza qilindi. Tinglovchilarga milliy jo'g'irchoq yasash sirlari aytib o'tildi. «Mahorat darslari» (Master-klass) jarayonida tarbiyachilar tomonidan qo'g'irchoqlar yasaldi.

– Bugungi darsda qo'g'irchoqlar yasashni o'rgandik, hozirgacha bilgan qo'g'irchoqlarimiz safiga yana bir nechtasi qo'shildi, – deydi Sirg'ali tumanidagi 32-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf mehnat o'qituvchisi Nigora Jo'rayeva.

Mahorat darslari poytaxtimizning boshqa tumanlarida ham davom etmoqda.

Davronbek ORIPOV

MAXSUS DARS SOATLARIDA

Donishmandlar bejiz «Bolani boshidan, niholni yoshidan tarbiyalamoq lozim», deb aytishmagan.

Bolaga ilm-u hunar barobarida yong'in xavfsizligiga oid bilim va ko'nikmalarni singdirish, yong'inning zararli oqibatlarini tushuntirib borish ham tarbiyaning uzviy qismidir.




Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani IIB

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlariga ulkan vazifalar belgilab berilgan. Kelajagimiz egalari bo'lmish bolajonlarni yong'in ofatlaridan muhofaza qilish maqsadida soha xodimlari tuman ta'lim maskanlarida o'quvchilarga yong'in xavfsizligi qoidalarini o'qitishga oid maxsus dars soatlarini olib borishni yo'lga qo'yishdi. Shuningdek, «Yong'in xavfsizligi oylligi»da maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Izdoshlar – ko'makdoshlar» mavzusidagi viktorina musobaqalari ishtirokchilarning tilsiz yovdan himoyalanih bo'yicha tasavvurlarini yanada boyitdi.

Dildora ERALIYEVA,

O'rta Chirchiq tumani 6-KYOXQ instruktori



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Bo'sh kataklarga mos javoblarni topib yozing:

1. Shon...
2. Qimmatbaho tosh.
3. Bahor guli.
4. Xom.
5. Qimmatbaho metall.
6. «Sohibjamol va...».

1	2	3	4	5	6
Sh	O	L	G'	O	M

Tuzuvchi:
Fayzulla ABDULLAYEV

26-yanvar 2015

Yapaloq dona urug'i,
Qornida go'sht-sarimoy.
Qirg'ichlab bersam, oyir
Yopib berdi somsaoy.



TOPISHMOQLAR



Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan.

Umidbek ISMOILOV,
Xorazm viloyati, Xiva tumani

8



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 43130
Buyurtma – S 1949

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.